



Илмий – амалий конференция
материаллари

**ИЛМ - ФАН
ВА
ИННОВАЦИЯ**

Қ а р ш и

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛШИ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ

ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ИЛМ-ФАН ВА ИННОВАЦИЯ

Илмий-амалий конференция
материаллари

Қарши
“Қарши давлат университети” нашриёти
2019

| | | | |
|----|--------------------------------------|--|-----|
| 24 | <i>Raimberdiyev A. Nuruллаева Ш.</i> | Шахси интеллектуал ривожлантириши — психолог-педагогик муаммо сифатида | 73 |
| 25 | <i>Sobirova N. Z. G'afforova T.</i> | Bolalarning deviatziyaga moyilligini tashxislash usullari | 76 |
| 26 | <i>O'sarova M.</i> | O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida konfliktlarning kelib chiqish sabablari | 79 |
| 27 | <i>Xo'jayarova N.</i> | Sharq mutafakkirlari asarlarida farzandlarga ota-ona munosabatlarning yoritilishi | 81 |
| 28 | <i>Erkinov M. Ismoilov N.</i> | Sportchi temperamentining faoliyat natijasiga ta'siri | 83 |
| 29 | <i>Avulova D. Mavlonov Y.</i> | XVI asr xarбий soxasi tarixidan (Buxoro xonligi misolida) | 86 |
| 30 | <i>Jamolov D.</i> | Bola tarbiyasida oila va jamoaning ўрни | 89 |
| 31 | <i>Mamatova M.B.</i> | «ЧА ЦЗИН» — первый трактат о чае | 94 |
| 32 | <i>Hurmanova Z.H.</i> | Жанубий Ўзбекистон шахарлари ўрта асрлар мисолида | 97 |
| 33 | <i>Saidov F.</i> | Марказий Осиё минтақасида тинчлик ва хавфсизликни таъминлашда Ўзбекистон республикасининг ўрни ва роли | 101 |
| 34 | <i>Samadova F., Eshmurodova G.</i> | Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirish | 105 |
| 35 | <i>Xoliqov F., Muxitova G.</i> | Mustakillik йилларида Ўзбекистоннинг хорижий мамлакатлар билан соғлиқни сақлаш соxасидаги ҳамкорлиги | 106 |
| 36 | <i>Bobojonova Sh. Mengliyev B.</i> | Ilmiy matnda so'z tartibi | 109 |
| 37 | <i>Jo'rayeva M., Mo'minova S.</i> | Abdulla Qodiriy she'rlarida millat qayg'usi | 112 |

| | | | |
|----|--|---|-----|
| 38 | <i>Maxadmurodova N. Bahiddinova B.</i> | O'zbek tilshunosligida birlikna va unga doir dolzarb masalalar | 114 |
| 39 | <i>Sultonova H.</i> | Исажон Султоянинг романнавистик маҳорати | 117 |
| 40 | <i>Ортиқова Э. Жабборов Э.</i> | Кодир бахши достонларида қўлланган ономастик бирикларнинг структураси | 121 |
| 41 | <i>Раҳматова З.У.</i> | Мақтабгача ёшдаги болалар нутқини ўстиришнинг лингвистик асослари | 125 |
| 42 | <i>Ro'ziyeva D.</i> | Adabiyotshunos olimning adabiy ijod yo'li | 128 |
| 43 | <i>G'uzieva D.</i> | Иқбол Мирзо ижодида метафора | 130 |
| 44 | <i>Самторзоба Х. Имомова Г.</i> | Чингиз Айтматовнинг "Тоғлар қулаётган замон (абдий каллик) романидаги бош гоё | 133 |
| 45 | <i>Sultonova H.</i> | "Генетик" романи бадияти | 137 |
| 46 | <i>Hasanova G. Yuldosheva N.</i> | Peshlavhalarda nolisoniy vositalarning o'rnini | 141 |
| 47 | <i>Cho'liyeva N.</i> | Nazar Eshonqul ijodida ramz | 145 |
| 48 | <i>Shodieva C.</i> | Қори Раҳматулло Возех хаёти ва илмий мераси | 148 |
| 49 | <i>Бердиерова М.Х.</i> | Нутқини ривожлантиришда тилнинг аҳамияти | 153 |
| 50 | <i>Ismoilova M.</i> | Curtailed words in press vocabulary | 156 |
| 51 | <i>Chariyeva D.A. Shukurova Z.SH.</i> | Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy usullari | 158 |
| 52 | <i>Чориева Зебо Шукурова З.Ш.</i> | Сифат сўз туркумига оид субстантивация ходисаси | 160 |

таъминланди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Уз.А. Документы, подписанные в Турции // Народное слово, 1991 год, 21 декабря. №245. С.1.
2. Левин.Л. Сотрудничать на взаимовыгодной основе // Народное слово, 1992 йил, 29 апрель. №85, С.1
3. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги халқаро иқтисодий алоқалар бошқармаси жорий архиви. 1992-1998 йиллар материаллари.
4. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги халқаро иқтисодий алоқалар бошқармаси жорий архиви. 1992-1998 йиллар материаллари.
5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси. 2017-йил 14 -январь. Тошкент. Ўзбекистон. - 2017. -Б.18.

ILMIY MATNDA SO‘Z TARTIBI

Magistr: Bobojonova Sh.

Ilmiy rahbar: prof. Mengliyev B.

Soʻzlar oʻzaro birikib kommunikativ vazifani bajarishi, biror fikr ifodalashi uchun gap tarkibida maʼlum izchillikda kelishi kerak. Bu izchillik tartibdir, tartib esa gap uchun zaruriy, har qanday tilde, eng avvalo, sintaktik muammodir. Chunki aslida gap oʻz tarkibi, ohangi va soʻzlar tartibining muayyan birligidan iboratdir. Taniqli tilshunos A.Gʻulomov tartibning gap boʻlaklarining grammatik maqomini belgilashda hal qiluvchi rol oʻynaganligini aytadi. M.Z.Zakiyevning fikricha, soʻz tartibi nutq qurilishining tabiatiga oiddir. Krushelnitskaya fikricha ham, soʻz tartibi gap grammatik shaklining muhim va oʻziga xos qurilish qismlaridan biri sanaladi. A.S.Melnichuk esa soʻz tartibi, maʼno urgʻusi (logik urgʻu) va gapning sintagmatik boʻlinishini rus tilida sintaktik

to'ldiruvchiga urg'u beriladigan bo'lsa, u o'z o'rnida turgani holda, alohida inveysiya bilan talaffuz qilinadi. Men Sizga hasratimni aytdimmi? Agar shu gapda vositali to'ldiruvchining mahnosi kuchaytirilmog'chi bo'lsa, u kesim oldiga o'tkazilib, ko'tarinki ohang bilan ayriladi, malum bir uslubiy maqsad ko'zda tutiladi.

Men hasratimni Sizga aytdimmi!

Shunday qilib to'ldiruvchi va kesim orasidagi inveysiya so'zlashuv, badiiy maunda fikrni his-hayqonli tarzda ifodalash uchun xizmat qilsa, ilmiy maunda muayyan dalilni mantiqiy ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Demak, ilmiy maunda ham gap bo'laklarning to'g'ri va inveysiyali tartibini uchratamiz. Gapda so'zlarning to'g'ri tartibi uslubiy talabga binoan tuziladi.

Umunan, ilmiy maunda so'zlar tartibi masalasi nazariy ahamiyatga ega bo'lgan hodisadir.

ABDULLA QODIRIY SHE'RLARIDA MILLAT QAYG'USI

Filologiya fakulteti, II bosqich magistranti Jo'rayeva M.,

Ilmiy rahbar: f.f.n. Mo'minova S.

Abdulla Qodiriy buyuk ijodkor, millatimiz, adabiyotimiz faxri, g'ururi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov: "Yurtimizda Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan birorta ham xonadon bo'lmasa kerak. U faqat O'zbekistonning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqbol kuychisi", -deb ta'kidlashi bejiz emas. (1.283)

Buyuk ijodkor, sehnli so'z sohibi, badiiy tasvir ustasi Abdulla Qodiriy ijodida milliylik asosiy xususiyat hisoblanadi. Uning hikoyalari, romanlari va she'riyatida milliylik yorqin aks etib turadi. "Ulug' inson uchun, -deb ta'kidlagan edi V.G.Belinskiy—yuksak darajada milliy bo'lishdan o'zga shart yo'q, chunki u busiz ulug' bo'lmaydi". (2.32) Atiga 44 yil umr kechirgan adib o'zidan noyob ma'naviy boylik qoldirishga eishdi. Abdulla Qodiriyning asarlarini bir marta o'qigan o'quvchi sira qo'lidan qo'ymasligi, hayoti mobaynida unga qayta-qayta murojaat qilishi tabiiy hol. Buning bois, adib asarlarining yuksak badiiyati

va teran mazmunidadir.

Qodiriyning she'riy merosi atigi 112 misrani tashkil etadi. Hajman qisqa bo'lsa ham, bu she'rlar adib ijodida ma'lum o'rin tutadi. Shoir she'rlarini ko'zdan kechiraylik.

Qildilar bul vaqt bizda jarvon to'y,

Aqchasi yo'qni eldi hayron to'y,

Bir-biridan oshirdilar to'ym,

Topdi ravnoq, g'ayraliia boyon to'y. (3. 14)

Shoirning mazkur she'ri hayv usulida yozilgan. Davriming ijtimoiy qiyofasi, zamoning kulfati, millatning loqaydligi adib qalbini larzaga solgan. Millatdoshlarining ko'zi ochiq bo'larib, qalbi, ongi basirliigidan afsuslangan. Eng go'zal milliy qadriyatlarimizdan biri bo'lgan to'y oddiy mehnatkash odam uchun fojiaiga aylanganligidan iztirob chekkan. Qarindosh, do'stlar millatdoshlarini "kori shayton to'y"lardan voz kechishga da'vat etgan:

Kelingiz do'stlar, din qarindoshlar,

Tashlarsun bo'lsa musulmon to'y, -deb yozgan.

Adib bu o'rnida ortiqcha dabdababozlik, isrofgarchilik, kim o'zarga qilingan to'yni qoralaydi. To'y — odamlarni, mahalla, qarindosh-urug', do'stlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan tadbir. To'y— milliy urf-odat, millat madaniyati, milliy hayran. Lekin, ana shu xislatlar insonni azoblash, qiynash, oilani yo'qchilikka duchor qilish evaziga bo'lsa, unday to'yning oxiri fojiaiga aylanishi tabiiy. Shoir ana shuni qoralaydi: Qodiriyning ushbu she'ri hali hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Hozirgi dorilomon kunlarda ham bir-biriga ba'is boylashib, oilasini qarzga botirib, farzandalarining rizqini qirgib, zo'rliq to'y qilayotganlar ozmunchami? XX asr boshlarida yozilgan misralarning qimmat XXI asrda ham pasaymadi. Nodan kimsalarni "Ko'rpagga qarab oyoq uzatishga", behudaga sarf qilinayotiga mablag'ni bolalarning kelajagiga, o'qishga, hunar egallashiga sarf qilishga da'vat qilmoqda.

XX asr boshlarida yurtimizda ma'rifatparvarlik g'oyalari keng tarqalgan edi. Abdulla Qodiriy ham ana shu ma'rifatparvarlar izidan borib, jaholatga, qoloqlikka, zulmanga qarshi kurashdi. Qoloqlik, nodonlikdan xalos bo'lishning birdan bir yo'li ilm-ma'rifatga yetaklovchi maktablar, dori'lunlar ochish deb biladi, ilm-